

Qorako‘l tuman Axborot - kutubxona markazi
AXBOROT – BIBLIOGRAFIYA XIZMATI



Mohir jurnalist va yozuvchi

(Xurshid Do'stmuhammad tavalludining 75 yilligiga bag'ishlab)

Tavsiya ro'yxati

Qorako‘l – 2026

So‘z boshi

Zamonaviy o‘zbek adabiyotining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri iste‘dodli yozuvchi, mohir jurnalist–**Xurshid Do‘stmuhammad** 1951-yil 8-yanvar, Toshkent shahrida tug‘ilgan. Filologiya fanlari doktori, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi.

Ish faoliyati

1976-yilda Toshkent davlat universitetining jurnalistika fakultetini tugatgan. 1973-1978-yillarda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi „Fan“ nashriyoti hamda 1978-1984-yillarda Fan va turmush jurnalida muharrir va bo‘lim muharriri, 1984-1986-yillarda „Selskaya pravda“ – „Qishloq haqiqati“ gazetasida muxbir, 1986-1995-yillarda Yosh kuch jurnalida bo‘lim muharriri, bosh muharrir o‘rinbosari, bosh muharrir kabi lavozimlarda, 1995-1997-yillarda O‘zbekiston Ommaviy axborot vositalarini demokratlashtirish va qo‘llab-quvvatlash ijtimoiy-siyosiy fondining hamraisi, O‘zbekiston jurnalistlari ijodiy uyushmasi raisi o‘rinbosari, 1997-2002-yillarda „Hurriyat“ gazetasida bosh muharrir, 2005-2007-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi spikerining o‘rinbosari – qo‘mita raisi, 2008-2010-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi spikerining o‘rinbosari, 2010-2015-yillarda O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining Xalqaro jurnalistika fakulteti kafedra mudiri lavozimlarida faoliyat yuritgan. 2020-yildan hozirga qadar O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati hisoblanadi. 2015-yildan boshlab yozuvchi nafaqaga chiqqan. Hozirda erkin ijodkor sifatida ijodiy faoliyatini davom ettirmoqda.

Ijodiy faoliyati

Xurshid Do‘stmuhammad zamonaviy o‘zbek adabiyotining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri hisoblanadi. Dastlabki kitobi– 1989-yilda „Hovli etagidagi uy“ nomi bilan nashrdan chiqqan. Shundan keyin yozuvchining „Panoh“, „Oromkursi“, „So‘roq“, „Sof o‘zbekcha qotillik“, „Mahzuna“, „Ibn Mug‘anniy“, „Yolg‘izim – Siz“, „Ko‘z qorachig‘idagi uy“ kabi asarlari, ayniqsa 1997-yilda nashrdan chiqqan „Jajman“ hikoyasi, shuningdek, 2000-yilda nashr etilgan „Hijronim mingdir mening“ qissa va hikoyalar to‘plami, „Yolg‘iz“ qissa va maqolalar to‘plami, „Bozor“ romani va boshqa asarlari adabiy jamoatchilik tomonidan yaxshi qabul qilingan. Yozuvchi shuningdek, qatag‘on qurbonlaridan birining fojiali taqdiriga bag‘ishlangan „Hamid A‘lamovning aytmagan gaplari“ xotira essesi va 2002-yilda nashr qilingan „Jurnalist bo‘lmoqchimisiz?“ nomli risolasi va shu yili chop qilingan „Chayongul“ kinossenariysi muallifi. 2014-yilda yozuvchining „Qichqiriq“, 2016-yilda esa „Donishmand Sizif“ romanlari nashrdan chiqdi.

Xurshid Do‘stmuhammad yapon adibi Ryūnosuke Akutagawa, ispan adibi Ignacio Aldecoa, shuningdek, AlesJuk, Boris Sachenko, Andrius Riuk kabi yozuvchilarning asarlarini o‘zbekchaga o‘g‘irgan. 2000-yilda uning senariysi asosida „Chayongul“ badiiy filmi yaratilgan.

Mukofotlari

Adibning „Bozor“ romani, „Hijronim mingdir mening“ va „Ozod iztirob quvonchlari“ kitoblari 2000-yilgi „Ofarin“ mukofotiga sazovor bo‘lgan. 2020-yil O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan „Ehtirom“ mukofoti topshirilgan. 1997-yilda „Shuhrat“ medali bilan taqdirlangan bo‘lsa, 2006-yilda Do‘stlik ordeni bilan mukofotlangan. 2020-yilda yozuvchiga O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi faxriy unvoni topshirilgan.

Tavsiya ro‘yxatimizni tuzishdan maqsad, iste‘dodli yozuvchi, mohir jurnalist Xurshid Do‘stmuhammadning ma’naviy me’rosini yanada chuqurroq o‘rganish, uning millatparvarlik borasidagi o‘lmas g‘oyaviy qarashlarini yosh avlod ongi va shuuriga singdirish, xalqimiz orasida keng targ‘ib etishdir.

Adabiyotlar

1989

1. **Дўстмуҳаммад, Х.** Ҳовли этагидаги уй [Матн]: ҳикоялар ва қиссалар / Хуршид Дўстмуҳаммад. – Тошкент: Ёш гвардия, 1989. – 192 б.
2. **Дўстмуҳаммад, Х.** Ҳижроним мингдир менинг [Матн]: қисса ва ҳикоялар / Хуршид Дўстмуҳаммад. – Тошкент: Ёзувчи, 2000. – 104 б.
3. **Дўстмуҳаммад, Х.** Бозор [Матн]: роман / Хуршид Дўстмуҳаммад. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 192 б.
4. **Дўстмуҳаммад, Х.** Ёлғизим – Сиз [Матн]: ҳикоялар ва қиссалар / Хуршид Дўстмуҳаммад. – Тошкент: Фафур Фулом, 2017. – 296 б.
5. **Do‘stmuhammad, X.** Yuz yillik qotillik [Matn]: tarixiy-hujjatli-ma’rifiy qissa / Xurshid Do‘stmuhammad. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2024. – 128 b.

Davriy nashrlarda chop etigan maqolalar

6. **Xurshid Do‘stmuhammad:**[yozuvchi va olim Xurshid Do‘stmuhammad ijodi haqida] // Culxan. – 2020. – №8 . – B.32
7. **Дўстмуҳаммад, Х.** Дурёғди: [Ҳикоя] / Хуршид Дўстмуҳаммад // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – 2023. – 3 noya. – B.3

8. **Дўстмуҳаммад, Х.** Мисоли олтин қум зарралари: [таниқли адиб ва публицист Аҳмаджон Мелибоевнинг “Эркин Воҳидовнинг имзоси” хотира-эссе китоби ҳақида] / Хуршид Дўстмуҳаммад // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – 2023. – 6 okt. – В.4
9. **Дўстмуҳаммад, Х.** Ижод ва фан мажнунлари: [Наим Каримовнинг ҳаёти ва фаолияти ҳақида] / Хуршид Дўстмуҳаммад // Jadid. – 2025. – 24 yanv. – В.1-5
10. **Дўстмуҳаммад, Х.** Xushxabar: [yangi yil haqida yozuvchining dil izhorlari] / Хуршид Дўстмуҳаммад // Jadid. – 2026. – 1 yanv. – В.8
11. **Saidov, H.** Zamonaviy uslubda yozadigan faylasuf adib:[Xurshid Do‘stmuhammad ijodiy faoliyatida jadidlar g‘oyasi] / H.Saidov // Ma‘rifat. – 2026. – 14 yanv. – В.8-9-16.
12. **Дўстмуҳаммад, Х.** Узун йўлни ёритган чироқ: [ҳикоя] / Хуршид Дўстмуҳаммад // Jadid. – 2026. – 27 fev. – В.5
13. **Дўстмуҳаммад, Х.** Комиллик пиллапояси:[маънавий комилликка эришиш учун интилиш ва ҳаракат қилиш тўғрисида] / Хуршид Дўстмуҳаммад // Tafakkur. – 2023. – №1. – В.22-27.
14. **Дўстмуҳаммад, Х.** Сувратдан сийратни излаган нигоҳ: [эссе-ҳикоя] / Хуршид Дўстмуҳаммад // Шарқ юлдузи. – 2023. – № 8. – В.82-100.

Tuzuvchi: M.Qulliyeva